

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Tuxtabekov K. A.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası dotsenti, t.f.n.

O‘zbekiston Milliy universiteti

kozimazimbek@mail.ru**“ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT
BOSQICHLARI****ANNOTASIYA**

Maqolada ulus atamasining mazmun-mohiyati, mazkur atamaning turli tarixiy davrda qo‘llanilish jihatlari qator manba va adabiyotlardan foydalanilgan holda ochib berilgan. Shu bilan birga Chingizxon tomonidan farzandlariga ulus (yurt) bo‘lib berish tarixi va Mo‘g‘ul saltanatida mulklarga egalikni anglatuvchi “ulus” atamasini ilk marotaba qaysi muallif tomonidan qo‘llanilganligi masalasi qayd etib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Chingizxon, Jo‘chi, Chig‘atoy, Huloku, Tulu, Mo‘g‘iliston, udel, ulus, no‘yon, nutug‘ (mo‘g‘ul tilida), yurt, yuzboshi, mingboshi, tuman (un ming), xubi, Rashiddin Fazlulloh, Alouddin Otamalik al-Juvayniy, Mirzo Ulug‘bek, Hofiz Tanish Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Muhammad Solih, Abu-l-G‘oziy Bahodir.

KIRISH

Insoniyat tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yuz bergan jarayonlarni har bir davrda qo‘llangan atamlar asosida tadqiq etish ulkan ilmiy ahamiyatga ega. Zero, shundagina biz tadqiq etilayotgan tarixiy davr jarayonini to‘laqonli va atroflicha ochib berishga muvofaq bo‘lamiz. Tarix metodologiyasi tadqiq etilayotgan ob‘ektning nomlanishini aniq bilish va mohiyatini tushunishdan boshlanadi. M.Blok qayd etganidek: “Har qanday tahlil eng avvalo vositaga asoslanadi ”М.Блок кайд этганидек “Eng avvalo har qanday tahlil – yangi kashfiyotlarga moslashuvvchan, faktlarni aniq tavsiflash layoqatiga (qodir) ega vosita – tilga muhtoj va bu muhim. Aniq fanlardan farqli ravishda, tarix fani qat‘iy va tartibga solingan atamashunoslikka ega emas. Bir-biriga yaqin ijtimoiy fanlar tili zamonaviylikka yo‘naltirilgan” [1].

Shunday ekan, tarix fanida bo‘lganidek, tarixiy atamashunoslikda ham atamalarning kelib chiqish va ma‘nosini o‘rganishda tarixiylik, xolislik, tanqidiy tahlil uslublariga suyanadi. Ba‘zi bir aniq hollarda esa, atamaning kelib chiqish davri, turli tarixiy davrlarda qanday ma‘noni anglatganini ko‘zda tutmoq zarur [2].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ma‘lumki, hali Chingizxon hayotlik chog‘idayoq mo‘g‘ul qo‘shinlari tomonidan egallangan hududlarni uning asosiy tayanchi va kuchi «to‘rt musht» deya e‘tirof etilgan o‘g‘illariga «yurt» (ulus – T.K.) qilib berdi [3]. Tarixiy adabiyotlarda Chingizxon farzandlariga u yerlarda yashagan xalqlar bilan birga tahsimlab berilgan hududlarni “ulus” yoki “yurt (qo‘l ostidagi hudud, qo‘l ostidagi viloyat, mulk)” deb atash qabul qilingan [4]. “Ulus” yoki “yurt (qo‘l ostidagi hudud, qo‘l ostidagi viloyat, mulk)” ega bo‘lishga, Chingizxonning katta o‘g‘li

Jo'chi ikki marotaba sazovor bo'ldi. Xususan, 1207 yilda otasining buyrug'i bilan Jo'chi tomonidan Tuva, Xakasiya, Oltoy hududlariga qilingan yurish muvofaqiyatli amalga oshirilishi bilan bu yerlar unga inom etiladi. «O'g'ilarimning kattasi sen, Jo'chi yaqindagini ota uyidan chiqib, yaxshi yo'llardan yurib, biror bir yo'qotishsiz o'rmon xalqlarini muvofaqiyatli bo'ysindirding. Bu xalqlarni senga beraman» [5]. O'z navbatida, 1224 yilda ikkinchi marotaba o'tkazilgan "ulus" yoki "udel" ajratish va taxt vorisini tayinlash borasidagi qurultoy qaroriga ko'ra: butun Dashti Qipchoq, Irtish – sharqda Dunay daryosigacha – g'arbda butun rus knyazliklari bo'lgan hududlar tarixda Oltin O'rda nomini olgan davlat tarkibiga kirdi va uni Jo'chi avlodlari boshqardi [6].

Oltoy tog'larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar ikkinchi o'g'li Chig'atoyga "ulus" sifatida berildi. Bu hududda Chig'atoy vafotidan bir necha yil o'tgandan keyin mo'g'ul imperiyasining parchalanishi oqibatida "Chig'atoy ulusi" deb nomlangan xoqon boshqaruvidagi mustaqil davlat tashkil topgan [7].

Hulokuiylar davlati, Chingizxon nabirasi Huloku tomonidan asos solingan. Huloku va uning taxtga chiqqan vorislari «El xon»iylar deb ham atalgani bois, Eron tadqiqotchilari adabiyotlarida mug'ul hukmdorlarini ko'p hollarda Elxoniylar deb nomlashadi.

Chingizxon vorisi sifatida e'lon qilingan Tuluga Xitoy va Mug'uliston "ulus" sifatida berilgan. Bu davlatga Xubilay tomonidan xitoycha Yuan saltanati deb nom berilgan [8].

"Tavorix-i guzidai Nusratnoma"da keltirilgan ma'lumotda "to'rt kuluk" o'g'illarga berilgan mulklarga egalik "bek va viloyatlar" deb ko'rsatilgan [9]. Alouddin Otamalik ibn Bahouddin Muhammad al-Juvayniyning fikriga ko'ra, Chingizxon vafotidan keyin 1257 yilga qadar markaziy boshqaruvga bo'ysingan farzandlari va vorislari uning uchun (Chingizxon – K.T.) saltanat tayanchi, ustuni sifatida o'z hayotlarini havf xatarga qo'yib, buyuk ishlar va jasorat ko'rsatib kelganlar. Juvayniy fikrini davom ettirib "Chingizxon o'g'illarining har biri uchun mahsus maqom berdi" Jo'chiga – "hayvonlarni ov qilishni nazorat qilish", Chig'atoyga – "tura va yasoq qonunlariga amal qilinishini nazorat qilish" kabilar topshirildi [10]. Yana muallif fikrini davo ettirib "... saltanat hududlari kengayib bepayon hududlarni egallaganidan keyin Chingizxon o'g'illari va qarindoshlarining har biriga yashashlari uchun hududlar in'om qildi, ular buni yurt deb atashadi" deya qayd etadi. Chingizxonning har bir qarindoshi maqomga ega bo'lib, yurt va harbiy qo'shiniga ega bo'ldi. O'z navbatida Rashiduddin Fazlulloh ibn Imomuddavla Abulxayr Hamadoni, Juvayniyning bu fikrlaridan foydalangan holda 1302 – 1311-yillarda yozilgan "Jome' ut-tavorix" ("Solnomalar majmuasi") asarida jiddiy o'zgartirishlar kiritdi. Rashiduddinga ko'ra: "Chingizxon o'g'illarining har biriga o'z davlatlarini tayyorlab berdi". Boshqa bir holatda muallif "Chingizxon" Irtish daryosi bo'ylari va Oltoy tog'lari hududlarini Jo'chiga ulus sifatida yoz va qish oylarida ko'chib yurish uchun hamda boshqarish uchun inom etdi. Jo'chiga Dashti Qipchoq yerlarini egallash va bu hududlardagi davlatlarni o'z mulklari tarkibiga kiritish yuzasidan farmon berdi. Shu tariqa rasman bu hududlar unga (Jo'chi – T.K.) boshqaruvga berildi. Botuxon to'g'risida

ham qayd etilib “u (Botu – T.K.)” ... ulus va qo‘ishiga Jo‘chidan keyin ega bo‘ldi” deya qayd etiladi [11].

Mo‘g‘ul saltanatida mulklarga egalikni anglatuvchi “ulus” atamasini ilk marotaba Rashiddin “Jome’ ut-tavorix” (“Solnomalar majmuasi”) asarida qo‘lladi. U Chingizxon tomonidan katta o‘g‘li Jo‘chiga berilgan hududlarni “Jo‘chi ulusi” – “Jo‘chixon ulusi” deb beradi. Rashiddin Fazlulloh asari mo‘g‘ul manbalariga tayanib yozilganini ta’kidlab o‘tgan holda, XIV asr chingiziylar ulusining davlat tuzilishi tartiblarini haqqoniy tarzda ochib beradi. Muallif ichki davlat boshqaruvi to‘g‘rida bayon etib Jo‘chining o‘g‘illari egalik qilgan mulklar to‘g‘risida ham ta’kidlaydi. Bulardan Jo‘chining o‘ng qanot ulusi (g‘arbiy qismi) tarkibiga kirgan Botu ulusi va ulusning chap qanot (sharqiy qismi) tarkibiga kirgan O‘rda-Ichan uluslari katta ahamiyat kasb etgan [12].

Ulus (Mo‘g‘ul – davlat, xalq, odamlar), no‘yonlarga bo‘ysingan va hududlarda ko‘chmanchilik qilgan (XIII asr boshlarida Mo‘g‘ul davlati shakllanishi davrida) oilalar guruhi; Chingizxonning mo‘g‘ul davlati, XIII asr ikkinchi yarmida mustaqil davlatlari bo‘lgan (xonliklar) chingiziylar udellari. XV asr – XVII asr oxirlarida “ulus” yirik yer egaligi. Manjuriyaliklar tomonidan Mo‘g‘iliston bosib olinganidan keyin hudud aymak va xoshunlarga bo‘linib “ulus” atamasi “xalq” ma’nosi bilan kifoyalandi. Bugungi kunda bu atama “davlat” ma’nosiini bermoqda. XX asr boshlarida buryat, qalmoq va boshqa xalqlarda feodal egaligi, ma’muriy birlik, urug‘, avlod va boshqa ma’nolarni bergan [13].

Mo‘g‘ul va musulmon manbalarida “ulus” atamasi butun mo‘g‘ullar saltanati nomini, boshqaruv tizimini ifoda etish bilan birgalikda, uning ayrim tarkibiy qismlariga nisbatan ham keng foydalanilgan. Ushbu atama Chingizxon tomonidan bosib olingan va u asos solgan saltanatining o‘zi hali hayotlik chog‘idayoq farzandlariga bo‘lib berilgan hududlarni ma’muriy va ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvida qo‘llanilganini qayd etib o‘tish lozim. Mavzuga oid hamda mazmunan bir-biriga juda yaqin bo‘lgan kam sonli manbalar tahlili asosida, keng ma’noni beruvchi, muhim qiymatga ega “ulus” atamasining chingiziylar davlatchiligi tarixining turli davrlardagi mazmun mohiyatini aniqlashtirish ahamiyatga ega. Ushbu masalaning to‘g‘ri yechimi esa chingiziylar davlatchiligi, ma’muriy tuzilishi, boshqaruvi hamda ijtimoiy-siyosiy rivoji kabi qator masalalarga aniq javob berish imkonini beradi. Jumladan, Jo‘chi va Chig‘atoy “ulus”lari hududida vujudga kelgan davlatlar borasida ham.

“Ulus” atamasining mohiyati va mazmunini ochib berishga qaratilgan qator tadqiqotlar olib borilgan va mazkur masalaga oid adabiyotlar nashr qilingan bo‘lishiga qaramay, uning aniq fuksiyasi nimalardan iborat ekanligi xususidagi masala hali hanuz o‘z yechimini topmagan. Bu masalaga yondashuv ya’ni, “ulus” atamasi ahamiyatini talqin etishda, Chingizxongacha va uning hukmronligi davriga va ko‘chmanchi jamiyatga nisbatan u yoki bu tadqiqotchining, davlat hokimiyati institutini muhokama qilishda, egallagan nuqtai nazariga bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Shu sababdan uzoq yillardan beri, ko‘chmanchilarda davlatning tashkil topishi, mutloq qonuniy ekanligi hamda bunday yondashuvga qarshi bo‘lgan va ko‘chmanchilarda davlatchilik g‘ayrioddiy hodisa bo‘lib, vaqtinchalik xususiyatga ega ekanligi borasida tadqiqotchilar orasida munozaralar

boradi. Ayrim mualliflar ko'chmanchilarda davlatchilik institutining mavjud bo'lganligini umuman inkor etishadi.

Mo'g'ullar tarixi, etnologiyasi va ijtimoiy-siyosiy hayoti tadqiqotchisi bo'lgan B.Ya.Vladimirtsovning fikriga ko'ra mo'g'ul davlatchiligining uzul kesil qaror topishi, Chingizxon boshchiligida Yeke Mug'ulga asos solinishi bilan bog'liq. Uning fikriga ko'ra qadimgi mo'g'ullarda "ulus" deb – "urug'lar ittfoq, avlodlar, qabilalar, xon, no'yon, tayshi, botirlardan qaramlik nuqtai nazaridan ..." nomlangan. Shundan kelib chiqib "ulus" so'zini "mulk egasi, er egasi", "xalq-er egasi", "xalq, biror bir hududdagi ittfoq yoki mulk egasini tashkil etuvchi" deb tarjima qilish mumkin. E.I.Kichanov fikriga ko'ra "ulus – oddiy urug' birlashmasi (ittfoqi – T.K.) emas, balki, maxsus tashkil etilgan, boshqaruvga asoslangan xalq". Chingizxon ulusida o'z oila a'zolari va urug'ga bo'ysinuvchi turli qabila – zodagonlar (no'yonlar) vakillari birlashtirilgan edi. Ulusni – ilohiy qudrat sohibi tomonidan boshqarish in'om etilgan xon boshqargan [14]. Shunday qilib, Chingizxon davrida "ulus" "xalq-davlat", "davlat-mulkni tashkil etuvchi odamlar", "davlat" sanalgan [15]. Shuningdek, ("xalq-davlat") saltanatni bunyod etgan xonning va uning avlodlari mulki sifatidan tan olingan. Ulus tarkibidagi qabila, urug' va xalqlarning ko'chib yurgan hududlari nutug' (mo'g'ul tilida) yoki yurt (turkiy tilda) deb atalgan [16].

Tadqiqotchi T.D.Skrinnikova "ulus" atamasi ko'p ma'noli va shu bilan birga noaniq bo'lib, Chingizxongacha va uning davrida mazkur atama mo'g'ullarda "odamlar", "xalq", "qabila"ni ifoda etgan. Muallif ko'rib chiqilayotgan davr mo'g'ul ijtimoiy-boshqaruv tizimini o'ta murakkabligini qayd etib, markazlashgan davlatdan avvalgi xususiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra mug'ullarda "Ulus" atamasi birlashma davlat ma'nosida "ancha keyingi hodisa" sanaladi [17].

Ch.P.Etvud fikriga ko'ra mo'g'ul tilida "ulus" so'zi faqatgina XVIII asrdan avvalgi "etnos; kimnindir kuchi bilan birlashtirilgan xalq; mamlakat" tushunchalarini umumiy yig'indisi ya'ni, "davlat" (shuningdek – "sulola") ahamiyatini kasb eta boshlagan. Uning bunday fikrga kelishga sabab, mo'g'ullarning mana shu davrga oid Xitoy tarixiy manbalari bilan yaqindan tanishuvi bo'ldi [18].

Mo'g'ul saltanatidagi davlatchilik sohasida so'ngi yillarda nashr etilgan ko'plab mualliflar asarlarini chuqur tahlili asosida S.A.Vasyutin "XIII asr o'rtalarida mo'g'ul saltanati ilk davlatchilikning ancha rivojlangan shakli bo'lib, shartli ravishda ko'chmanchilar saltanati eng yuqori cho'qqisi sifatida ko'satadi" degan fikrga keldi [19].

XX asr 30-yillaridan bolshab ilgari surilgan B.Ya.Vladimirsov konsepsiyasiga tayangan qator tadqiqotchilar tomonidan, ilmiy muomalada keng qo'llaniladigan yangi "ulus tizimi" degan atama kiritildi. O'z navbatida "ulus" atamasi vaqt va makonda haddan tashqari keng talqin qilina boshladi. Ulus sifatida faqatgina Chingizxon saltanati nomlanmadi, balki mazkur atama bilan butun davr e'tibroga olinmagan holda chengiziylar mulki qatorida, ayrim viloyatlari ham atala boshlandi.

“Ulus” atamasi va uning fonetik varianti sanalgan “ulush” turkiy soʻz sanaladi [20]. Qadimgi turkiylarda “ulush” soʻzi asosan “qishloq” maʼnosini bergan [21]. Qadimiy turkiy til lahjasidan moʻgʻul tiliga kirgan “ulus” atamasi maʼno jihatdan oʻzgardi va XIII–XVII asrlarda moʻgʻil tili vositachiligi taʼsirida turkiy tillarda “xalq”, “inson”, “mamlakat”, “mulk, mulk egasi”, “davlat” ahamiyatiga ega boʻldi [22]. XVII asr moʻgʻil manbalarida “ulus” atamasi “mamlakat, davlat” maʼnolarini angatib “xalq” iborasi bilan bir qatorda qoʻllanilgan.

Maʼlumki moʻgʻul saltanatining ilk tarixiy davrida “yuzboshi, mingboshi, tuman (un ming) boshi xizmatlari uchun xon tomonidan xubi (ulush) bilan - mukofotlanganlar”. Ehtimol, “ulus” va “xubi” atamaları huquqiy jihatdan turlicha boʻlgan boʻlishi kerak. Moʻgʻul saltanati asoschisi Chingizxon davrida oʻgʻillari va yaqin qarindoshlari mulklari xuquqiy jihatdan “xubi”ga yaqin boʻlgan deb tahim qilishga asos mavjud. XIV asrda ham “xubi” atamasi Koʻk Oʻrdada mohiyati boʻyicha oʻz ahamiyatini saqlab qolgan edi. XVI asr boshlarida yozgan Muiniddin Natanziy, “tadbirlarda ishtirok etgan etti yuzga yaqin oʻz odamlarga iltifot va marhamatlar qildi hamda ulrning har birlariga mulk (kupi) va viloyat “sube” tayyorladi”. Taxminimizcha manbalarda chingiziylar mulklarini koʻrsatishda “xubi” atamasi oʻrniga odatda “inju” atamasi qoʻllanilgan. E.I.Kichanov “xubi” “buyuk xon xonadoni tomonidan inʼom etilgan mulk” deb aniqlik kiritadi. Uning soʻzlariga koʻra Botuga ham shu inʼomlar berilgan [23].

Chingizxon vafotdan soʻng u asos solgan va oʻgʻillari hamda ukalariga boʻlib berilgan, norasmiy “ulus” nomini olgan saltanat markaziy boshqaruvida boʻlinish vujudga keldi. Biroq, “umum moʻgʻul” davlat tushunchasi tafakkurda saqlanib qolib, ulugʻ xonning barcha oʻgʻillari va nabiralari oʻz taqdirlari va mulklarining egasi emas, balki umumsaltanat yuqori tabaqa vakillari edilar.

Mirzo Ulugʻbekning «Toʻrt ulus tarixi», Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul asror”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” va Abulgʻoziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” kabi mualliflarning asarlarida “ulus” atamasi “el ulus” “qabila”, “qavm” atamalarining sinonimi sifatida foydalanilgan. Shuningdek, qator manbalarda esa “ulus” atamasi “yurt” atamasiga (maʼlum bir koʻchmanchi qabilaning koʻchib yuruvchi hududi) sinonim sifatida berilgan.

Xususiyatli tomoni shundaki, turkiy xalqlar tilida “el” atamasi (qabila, urugʻ) qishloq maʼnosini bergan. Buning asosiy sababi sifatida, qadimgi va oʻrta asrlarda maʼlum hududda bir urugʻga mansub kishlar yashaganligi bilan izohlash mumkin.

XULOSA

Shuni qayd etib oʻtish lozimki, sulolalar almashinuvi, hududlar, chegaralarning oʻzgarib borishi yaʼni turli tarixiy davrlarda muayyan hududda oliy hokimiyat (saltanat hukmdori (imperator), podshoh, xon, amir) manfaatlarini amalga oshirish uchun xizmat qilgan boshqaruv mexanizmi ifoda etgan va bugungi kunda davlat deb taʼrif etilgan boshqaruv shaklini moʻgʻullar davrida “ulus” oʻzida mujjassam etgan. Ammo qayd etilganidek sulolalar almashinuvi, chegaralar oʻzgarishi va hakazo omillar sababli “ulus” atamasi mohiyati, mazkur atamada ifoda etilgan

mazmun ko‘lami o‘zgarib unig o‘rmini yangi tushuncha egalladi desak mubolig‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Блок М. Апология истории или ремесло историка. 2-е изд. М., 1986. С. 89.
2. Саидбобоев З. Тарихий атамашунослик. – Тошкент. 2002. – Б.6.
3. Султонов Т.И. Чингиз-хан и Чингизиды. Судба и власть. – М., 2006. – С.17.
4. Бартольд Б.Б. Сочинения. Т.2. Ч.1. – Москва. Изд. «Восточной литературы». 1963. – С.59-60, 144; Т.5. – С.133.
5. История татар. С древнейших времен. Улус Джучи (Золотая Орда XIII – середина XV в.) Т.3. – Казань. – С.170. Қаранг: O‘zbekiston tarixi. Т.1. – Toshkent. 2019. – В.362.
6. Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Государство и народы Евразийских степей (от древности к новому времени). – Санкт-Петербург. 2009. – С.214.
7. Ачилова Г.М. Мовароуннахрнинг Чигатой улуси таркибидаги сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаёти (1227-1370 йиллар): Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. – Тошкент. 2019. – Б.23.
8. Семенов А.А. Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып.1. // Труды Академия наук Таджикской ССР. Т.ХІІ. – Сталинабад. 1954. – С.7.; Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Ўша жойда.; Қаранг: O‘zbekiston tarixi. Т.1. – Toshkent. 2019. – В.362.
9. Таварих-и гузида – Нусрат-наме. – Ташкент, 1967. – С. 106.
10. Чингизхан: история завоевателя Мира / [Ата-Мелик Джувейни; пер. с текста Мизры Мухаммеда Казвини на англ. яз. Дж. Э. Бойла; пер. с англ. Е.Е. Харитоновой; предисл. и библиогр. Дэвида О. Моргана]. – М.: Магистр-Пресс, 2004. – С. 28–29.
11. Рашид-ад-Дин. Сборник летописей. – Т. II. – М.; Л., 1960. – С. 70-78.
12. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Т. 1: Извлечения из сочинений арабских. СПб., 1884; Т. 2: Извлечения из персидских сочинений. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1941.
13. Словарь русского языка: В 4-х т. / РАН, Ин-т лингвистич. исследований; Под.ред. А.П.Евгеньевой. – 4-е изд., стер. – М.: Рус. яз.; Полиграфресурсы, 1999; <https://ru.wiktionary.org/wiki/%D1%83%D0%BB%D1%83%D1%81>
14. Кычанов Е.И. Кочевые государства от гуннов до маньчжуров. – М., 1997. – С. 185–187.
15. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. – Л., 1934. – С. 97.
16. Qarang: Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. – Л., 1934. – С.98-99, 101.; Трепалов В.В. История Ногайской Орды. – М., 2001. – С. 7.; Зайцев И.В. Астраханское ханство. – М., 2004. – С. 49).

17. Скрынникова Т.Д. Харизма и власть в эпоху Чингиз-хана. – М., 1997. – С. 25–30.
18. Atwood, Ch.P. National Questions and National Answers in the Chinese Revolution; Or, How Do You Say Minzu in Mongolian? // Indiana University, Bloomington. Central Asian Studies. – [http:// www.indiana.edu/~easc/resources/working_paper/noframe_5b.htm](http://www.indiana.edu/~easc/resources/working_paper/noframe_5b.htm).
19. Васютин С.А. Монгольская империя как особая форма ранней государственности? (К дискуссии о политических системах кочевых империй) // Монгольская империя и кочевой мир. – Улан-Удэ, 2004. – С. 283.
20. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). – М., 1974. – С. 592.
21. Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – С. 611.
22. Тюркологические исследования // И.А. Мустакимов. Улус Джучи – Золотая Орда: названия государства в средневековых источниках 77-с.
23. Кычанов Е.И. Кочевые государства от гуннов до маньчжуров. – М., 1997. – С. 197.

Тухтабеков К. А.

К.и.н., доцент кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

kozimazimbek@mail.ru

ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ТЕРМИНА «УЛУС».

АННОТАЦИЯ

В статье с использованием ряда источников и литературы раскрыта сущность термина улус, аспекты его употребления в разные исторические периоды. При этом отмечена история раздачи Чингисханом улуса (земли) своим детям и вопрос о том, какой автор впервые употребил термин «улус», означающий собственность в Монгольской империи.

Ключевые слова: Чингисхан, Джучи, Чигатай, Хулоку, Тулу, Монголия, удел, улус, нойон, речь (на монгольском языке), страна, сотня, тысяча, туман (десять тысяч), Хуби, Рашидиддин Фазлуллах, Алауддин Атамалик аль-Джувейни, Мирза Улугбек, Хафиз Таниш Бухари, Махмуд ибн Вали, Мухаммад Салих, Абу-л-Гази Бахадир.

Tukhtabekov K. A.

PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»

National university of Uzbekistan

kozimazimbek@mail.ru

ORIGIN AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE TERM “ULUS”

ABSTRACT

The article describes the essence of the term ulus, aspects of its use in different historical periods, using a number of sources and literature. At the same time, the

history of Genghis Khan's distribution of ulus (land) to his children and the issue of which author used the term "ulus" meaning property ownership in the Mongol Empire for the first time have been noted.

Keywords: Genghis Khan, Jochi, Chigatai, Huloku, Tulu, Mongolia, udel, ulus, noyon, speech (in Mongolian), country, hundred, thousand, tuman (ten thousand), Khubi, Rashididdin Fazlullah, Alauddin Atamalik al-Juvaini, Mirza Ulughbek, Hafiz Tanish Bukhari, Mahmud ibn Vali, Muhammad Salih, Abu-l-Ghazi Bahadir.